

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 166 (1765), 2026-yil 18-avgust, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news




yuz.uz_news



XORAZM ZAMINIDA YANGI O‘ZBEKISTONNING BUNYODKORLIK, TARAQQIYOT VA YANGILANISH RUHI TOBORA YAQQOL NAMOYON BO‘LMOQDA

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 17-avgust kuni hududlarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan yaqindan tanishish, aholi vakillari va tadbirkorlar bilan muloqot qilish maqsadida Xorazm viloyatiga keldi.



Xorazm — qadimiy tamaddun beshigi! Unda azaldan ilm-fan, adabiyot va san’at rivoj topgan. Bu diyor odamlari bepoyon kengliklari kabi sokin. Ana shu sokinlik qa’rida donishmandlik, Amudaryoning quyi oqimi kabi shijoat mujassam. Shu bois, Xorazmdan jahon ahli havas qiladigan ko’plab pahlavonlar, ilm-ma’rifatda yetakchi allomalar yetishib chiqqan.

Yangi O‘zbekistondagi islohotlar nafasi kirib kelgach, xorazmliklar ruhiyatida ajdodlardan meros ilmga tashnalik, bunyodkorlik kayfiyati yanada kuchaydi. O‘tgan yillarda viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati tubdan yangilandi. Yangi yo‘llar qurilib, ko‘plab ishlab chiqarish korxonalariga asos solindi. Umuman, barcha jabhada tub o‘zgarishlar, o‘shish kuzatildi.

Masalan, oxirgi to‘qqiz yilda 11 ta yangi turizm maskani ishga tushirilgan. Qolaversa, 280 ta mehmonxona va mehmon uyi qurilib, mehmonxona fondi 4 barobar oshgan. Natijada so‘nggi besh yilda xorijiy sayyohlar soni 10 karra ko‘paygan.

Joriy yilning o‘zida esa Urganch xalqaro aeroporti tomonidan 126 milliard so‘mlik xizmat ko‘rsatilgan. Ushbu ko‘rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan o‘shish 31 foiz ekanidan dalolat beradi. E’tiborlisi, aeroport orqali o‘nga yaqin nufuzli aviakompaniya tomonidan muntazam qatnov

yo‘lga qo‘yilgan. Yangi O‘zbekistondagi ana shu yangilanishlar shiddati sabab Xorazm mamlakatimizning tom ma‘nodagi jadal rivojlanayotgan hududlaridan biriga aylandi.

Bugun bu diyorda xalqaro darajadagi yirik tadbirlar, Vatanimizni dunyoga tanitish, shu orqali sayyohlarni jalb qilishga xizmat qilayotgan festivallar o‘tkazilmoqda. Ayni jihat viloyatning transport-logistika tizimi rivojini yangi bosqichga olib chiqish vazifasini qo‘ymoqda. Quvonarlisi, bu boradagi ishlar ham puxta o‘ylangan aniq reja asosida bosqichma-bosqich bajarilmoqda.

Xususan, Urganch xalqaro aeroportida rasmiy delegatsiyalarga xizmat ko‘rsatadigan terminal bunyod etildi. Qolaversa, yangi aerodrom majmuasi rekonstruksiyasining birinchi bosqichi jadal davom etyapti.

Prezidentimiz Xorazm viloyatiga tashrifini mazkur loyihalar bilan tanishishdan boshladi.

Umumiy maydoni 285 gektardan ortiq bo‘lgan Urganch xalqaro aeroporti 1960-yilda ishga tushirilgan. Unga 1992-yili xalqaro maqom berilgan. Hozir esa ushbu aeroport bugungi shiddatli taraqqiyotga mos tarzda kengaytirilib, modernizatsiya qilinmoqda. Buning uchun jami 264 million dollar miqdorida investitsiya yo‘naltirilgan. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihaga Janubiy Koreyaning “Incheon International Airport Corporation” kompaniyasi jalb etildi.

Davlatimiz rahbari Xiva hamda Urganch shaharlari yirik xalqaro sammitlar, oliy darajadagi diplomatik uchrashuvlar, nufuzli iqtisodiy va madaniy anjumanlar o‘tkaziladigan global maydonga aylanayotganini ta’kidladi. Bunday tadbirlarga kelayotgan xorijlik delegatsiyalar uchun yuqori darajadagi qulaylik va xavfsizlikni ta’minlash mamlakatning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiboriga bevosita xizmat qilishi qayd etildi.

Albatta, qamrovning kengayishi zamonaviy va yirik samolyotlarning bemalol uchib-qo‘nishi uchun sharoit yaratish, shunga mos tarzda xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish ehtiyojini paydo qiladi. Shu bois, rekonstruksiya doirasida aeroportda “Boeing 747” va “Airbus A350” kabi keng fyuzelyajli havo kemalarini bemalol qabul qilish imkoniyati yaratilmoqda. Bu dunyoning olis nuqtalaridan to‘g‘ridan to‘g‘ri, tranzitsiz Xorazmga uchib kelish imkoniyati demakdir.

Yana bir muhim jihat. Rekonstruksiya ishlarining birinchi bosqichida 18 ta havo kemasi turargohi va yangi burilish yo‘lagi qurib bitkaziladi. Bundan tashqari, aeroportda zamonaviy chegara nazorati va viza bo‘limlari tashkil etiladi. Qolaversa, shinam biznes-zal, turli savdo va ovqatlanish shoxobchalari, kechayu kunduz ishlaydigan tibbiyot punkti, dunyo brendlarini mujassam etgan “Duty

free” zonasini ham barpo etilmoqda. Muhimi, loyiha yakunlangach, yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish quvvati soatiga 300 dan 1300 nafargacha ortadi.

Bular ilm-fanga asoslangan, vatanparvarlik va elsevarlik tuyg‘ulari bilan boshlangan katta islohotlarning navbatdagi bosqichi ekanidan dalolat. Zero, Xorazmning qadim ohanglarini bizgacha yetkazib bergan ulug‘ shoir Muhammadrizo Ogahiy:

“Ilm odam qanji nafi’dur bani odamg’akim,

Kimda ul bo‘lsa, iki olam bo‘lur obod ang’,” deb yozgan edi.

Ushbu hikmatli so‘zlarning hayotiy haqiqatini ko‘rib-bilib turibmiz. Mamlakatimizda barcha sohaga ilm bilan yondashib, yetti emas, yetmish marta o‘lchab qaror qabul qilina boshlagach, xalqimiz olami — hayoti obod bo‘la boshladi. Buni dasturxonlarimiz to‘kinligi, undagi noz-ne’matlarning turfa xilligida ham ko‘rish mumkin. Urganch tumanidagi “Tillo domor” korxonasi faoliyati fikrimizning yorqin dalili.

Tashrifning navbatdagi manzili pishloq, qaymoq, smetana, tvorog, qatiq, kefir kabi 70 dan ortiq turdagi sut mahsulotlari ishlab chiqariladigan “Tillo domor” korxonasi bo‘ldi.

Mamlakatimiz yetakchisi ushbu korxonadagi yangi ishlab chiqarish

majmuasida sutni qayta ishlab va tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishdi.

Xorazm nafaqat ilm-ma’rifat sohiblari, hunarmand va dehqonlar, balki chorvadorlar yurti ham. Ular Amudaryo bo‘yidagi kengliklarda doim chorva boqib, el koriga yaragani qadim dostonlarda o‘z aksini topgan. Mamlakatimizda barcha soha va tarmoqlarda qo‘shilgan qiymat zanjirini kengaytirishga qaratilgan islohotlar mazkur sohaga ham yangi nafas olib kirdi.

So‘nggi yillarda chorvachilik rivojlandi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash darajasi sezilarli kengaydi. Natijada oziq-ovqat sanoatida qo‘shilgan qiymat zanjirining ulushi ortib bormoqda. Erishilayotgan yutuqlar ortida esa mahalliy xomashyoni qayta ishlab va ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yaratilgan keng imkoniyatlar turibdi. Ulardan unumli foydalanayotgan tadbirkorlarimiz esa sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etib, xalqimizga sifatli mahsulot yetkazib bermoqda.

Bu borada umumiy qiymati 11 million dollarlik “Tillo domor” korxonasining ham o‘z o‘ini bor. Korxona yiliga qariyb 100 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega. Buning uchun Bolgariyadan

zamonaviy texnologik uskunalar olib kelingan.

Korxonada 120 ta ish o‘rni ochilgan. Ammo u orqali ro‘zg‘ori but bo‘lib, doimiy daromad topayotganlar salmog‘i bundan ancha ko‘p. Chunki korxona har kuni 100 dan ziyod fermer xo‘jaligi va aholi xonadonlaridan xomashyo sotib oladi. Bu esa xorazmlik chorvadorlar uchun doimiy bozor va barqaror daromad degani. Korxonada mahsulot turlarini ko‘paytirib, yana 100 ta yangi ish o‘rni ochish rejalashtirilgan.

Ishlab chiqarish majmuasida 100 kilovatt quvvatga ega quyosh panellari o‘rnatilgan. Shu orqali zarur energiya uchun salmoqli qismi quyoshdan olinadigan quvvat evaziga qoplanadi. Bu ham mamlakat iqtisodiyoti uchun salmoqli ko‘rsatkich.

Ayni paytda viloyatda 1200 ga yaqin qayta ishlab korxonasi faoliyat yuritmoqda.

Prezidentimiz mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlab, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish, bunday korxonalarni xomashyo bilan barqaror ta’minlash, mahsulot turlari va ishlab chiqarish hajmini oshirish muhimligini ta’kidladi. Mutasaddilarga bu boradagi tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berildi.

Davomi 2-beta

Mamlakat iqtisodiyotining yuragi qayerda uradi degan savolga javob izlasak, uni eng avvalo tadbirkorning har kunlik mehnatida ko‘ramiz. Ertalab korxona ushuni ochgan ishbilarmon ehsan iqtisodiyot rasmiy raqamlardan ko‘ra, ishlab turgan dastgoh, vaqtida yetkazilishi kerak bo‘lgan buyurtma, oylik kutayotgan ishchi, qimmatlayotgan xomashyo, kredit uchun topilishi lozim bo‘lgan mablag‘ va ertangi kunga tuzilgan rejada namoyon bo‘ladi.

Ammo bu rejaning amalga oshishi ko‘pincha tadbirkorning g‘ayrati va tashabbusigagina emas, uning ishiga qanday sharoit yaratilganiga ham bog‘liq: elektrdagi uzilish ishlab chiqarishni to‘xtatishi, garov masalasidagi to‘siq yangi loyihani kechiktirishi, ortiqcha hujjatbozlik yoki logistikadagi muammo esa tayyor mahsulotning bozorga chiqishini qiyinlashtirishi mumkin.

Davomi 3-beta

MULOQOTDAN BOSHLANGAN IQTISODIY TAFAKKUR YO‘LI



Islohotlar samarasi



Prezident Xalq qabulxonasi — shunchaki shikoyat qilinadigan dargoh emas. Bu yerga odamlar o‘zining real muammosi bilan keladi va shu muammoga yechim izlaydi. Murojaatlar ham shunchaki qabul qilinib, og‘zaki javob bilan cheklanib qolinmaydi. Har bir muammo o‘rganiladi va yechimi nazoratga olinadi.

Toshkent viloyati Xalq qabulxonasi:

SUN‘IY INTELEKT
AHOLIGA HUQUQIY MASLAHAT BERYAPTI

Yurtimizda ilk bor Xalq qabulxonalari tashkil etilgan vaqtni ko‘pchilik yaxshi eslaydi. Dastlabki kunlardanoq yangi tizim fuqarolar bilan davlat organlari o‘rtasida samarali muloqotni yo‘lga qo‘yib, qisqa vaqtda hududlarda aholi

murojaatlarini qabul qilish, tez fursatda ko‘rib chiqish hamda muammolarni amaliy hal etish bo‘yicha samarali mexanizmga aylandi.

Davomi 5-beta



20-avgust – Tadbirkorlar kuni

Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotlari iqtisodiy islohotlarning muhim maydoniga aylanib bormoqda. 2024-yil 20-avgust kuni Nukus shahrida o‘tkazilgan ochiq muloqot ana shu jarayonning mantiqiy davomi bo‘ldi.

DAVR
NAFASI

3

2026-yil 18-avgust, 166-son

“**B**eshinchi ochiq muloqot avvalgi yillarda boshlangan islohotlarning mantiqiy davomi edi. Agar dastlabki bosqichlarda tadbirkorlarni eshitish va muammolarini hal etish asosiy vazifa bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda davlat va biznes munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

Boshlanishi 1-betda

Ana shu hayotdagi o‘zgarishlarni ko‘rish, tadbirkorni nima o‘ylantirayotganini eshitish va uning ishiga xalagit berayotgan to‘siqlarni bartaraf etish uchun ochiq muloqot muhim maydonga aylandi. Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotlari yillar davomida ishblarmon ehtiyojidan tug‘ilib, uning ovozi qorolar darajasiga olib chiqadigan o‘ziga xos an‘ana bo‘ldi.

Navbatdagi ochiq muloqot oldidan ham ana shu ovozlar quloq tutilib, tadbirkorlarni qiynayotgan masalalar hayotning o‘zida, korxona va ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog‘liq holda o‘rganildi. 6 mingga yaqin murojaat kelib tushdi, 750 dan ziyod uchrashuv o‘tkazildi, 8,8 mingdan ortiq tadbirkor ishtirok etdi. 5072 nafar tadbirkor o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov orqali korxonalar samaradorligi, investitsiya va infratuzilma, soliq ma‘murchiligi, tashqi savdo hamda sud-huquq sohasidagi masalalar o‘rganildi.

Islohotlarni harakatlantiruvchi kuch

Har qanday iqtisodiy qaror zamirida insonning kundalik hayoti va tadbirkorning amaliy ehtiyojlari turadi. 2021-yilgi muloqotning ahamiyati ham davlat iqtisodiyot haqida tadbirkorlar bilan birga fikr yuritish yo‘lini tanlaganida namoyon bo‘ldi. Unda soliq va moliyaviy yukni yengillashtirish, kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish, subsidiya va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Bu o‘zgarishlar tadbirkorning kundalik faoliyatida ham aks etdi. Bir paytlar yangi ish boshlagan ishblarmon uchun tekshiruv, ortiqcha talab va moliyaviy to‘siqlar jiddiy muammo bo‘lgan bo‘lsa, keyingi yillarda biznes muhiti asta-sekin yengillashti. Tadbirkorlik faqat mavjud faoliyatni saqlab qolish emas, uni kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va investitsiya jalb etish imkoniyatiga aayana boshladi.

Eng muhimi, ochiq muloqot tadbirkorga bo‘lgan munosabatni ham o‘zgartirdi. Tadbirkor endi faqat soliq to‘lovchi yoki ishlab chiqaruvchi emas, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralmoqda. Shu tariqa 2021-yilda boshlangan muloqot davlat va biznes o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqib, tadbirkorlarning taklif va muammolarini qarorlar darajasiga olib chiqadigan tizimga aylandi.

Uchrashuvdan qarorga, fikrdan tizimga

2021-yilgi tadbirkorlar bilan ochiq muloqot davlat va biznes munosabatlarida yangi sahifa ochgan bo‘lsa, 2022-yil 22-avgustda o‘tkazilgan navbatdagi muloqot ushbu tizimning amaliy samaralarini namoyon etdi. Birinchi uchrashuvda tadbirkorlarni eshitish muhim

MULOQOTDAN BOSHLANGAN
IQTISODIY TAFAKKUR YO‘LI

masalasi ham chetda qolmadi. Chunki ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish uchun yer, elektr energiyasi, gaz, suv va yo‘l kabi asosiy infratuzilma tarmoqlari mavjudligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu maqsadda hududlarda maxsus shtablar va ishchi tizimlar tashkil qilinib, tadbirkorlarning bu boradagi muammolarini tekzor hal etish mexanizmi yo‘lga qo‘yildi. Bu, ayniqsa, hududlarda yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratdi.

Muloqotning yana bir muhim natijasi Prezidentimiz huzurida Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha jamoatchilik kengashi tashkil etilgan bo‘ldi. Mazkur qaror ochiq muloqot davomida ko‘tarilgan masalalar ijrosini doimiy nazorat qilish, tadbirkorlar bilan uzluksiz aloqani ta‘minlash va yangi takliflarni muntazam o‘rganib borish imkonini berdi. Boshqacha aytganda, davlat va biznes o‘rtasidagi muloqot bir kunlik tadbir bo‘lib qolmay, doimiy ishlaydigan tizimga aylantirildi.

2022-yilgi ochiq muloqot kredit resurslariga yetish imkoniyatlarini kengayitish, tadbirkorlarning huquqiy himoyasi kuchayishi, infratuzilma muammolari bosqichma-bosqich hal etilishi va davlat bilan biznes o‘rtasidagi muloqotning institutsional tus olishi, tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilashga xizmat qildi.



Toifalash va manzilli rivojlanish

Yangi tashkil etilgan kichik korxona bilan yirik ishlab chiqarish korxonasining ehtiyoji ham, imkoniyati ham bir xil emas. Xuddi shuningdek, iqtisodiy salohiyati yuqori hudud bilan rivojlanishdan ortda qolayotgan tumanning imkoniyatlari o‘zaro farq qiladi. 2023-yilgi ochiq muloqot aynan shu haqiqatdan kelib chiqqan holda biznesni va hududlarni toifalash bo‘yicha muloqot yangi tizimini joriy etdi.

Unga ko‘ra, mamlakatdagi tadbirkorlik subyektlari mikro, kichik, o‘rta va yirik biznes toifalariga ajratildi. Bu qarashda oddiy tasnifdek



ko‘rinishi mumkin. Ammo uning iqtisodiy ahamiyati ancha keng. Chunki har bir toifa uchun alohida yondashuv, moliyaviy ko‘mak va rivojlanish mexanizmlarini ishlab chiqish imkoniyati yuzaga keldi. Natijada davlat qo‘llab-quvvatlash choralari tadbirkorning real ehtiyojidan kelib chiqqan holda shakllantiriladigan bo‘ldi.

Mamlakatning iqtisodiy jihatdan qoloq 60 ta tumani alohida besh toifaga ajratildi. Bu qaror hududiy taraqqiyot masalasida yangi yondashuvni boshlab berdi. Ilgari ayrim holatlarda barcha hududlarga bir xil iqtisodiy mexanizmlar qo‘llanilgan bo‘lsa, endi har bir tumanning imkoniyati, muammosi va rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda maxsus soliq, kredit va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari belgilandi. Bu esa iqtisodiy o‘sishni faqat yirik shaharlar yoki sanoat markazlarida emas, balki mamlakatning barcha hududlarida ta‘minlashga xizmat qildi.

2023-yilgi ochiq muloqotning eng muhim jihatlaridan biri davlat mablag‘larini iqtisodiyotga yo‘naltirish mexanizmlarining qayta ko‘rib chiqilganida ham namoyon bo‘ldi. Uzoq yillar davomida davlat ishtirokidagi yirik korxonalar iqtisodiy resurslarning asosiy qismiga ega bo‘lib kelgan bo‘lsa, yangi qarorlarga muvofiq, moliyaviy resurslarning katta qismi xususiy sektorga yo‘naltiriladigan bo‘ldi. Xususan, banklar tomonidan kamida 30 trillion so‘m mablag‘ni xususiy biznes loyihalariga yo‘naltirish vazifasi belgilandi.

Oqibatda iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan xususiy sektorning moliyaviy imkoniyatlari yanada kengaydi. Yangi korxonalar tashkil etish, ishlab chiqarishni kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o‘rinlari yaratish uchun qo‘shimcha resurslar paydo bo‘ldi. Natijada davlat iqtisodiyotida bevosita ishtirokchi bo‘lib qolmay, xususiy tashabbuslarni rag‘batlantiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi institut sifatida harakat qilishga o‘ta boshladi.

Muloqot davomida tadbirkorlarni uzoq yillardan buyon qiynab kelayotgan ayrim soliq

masalalari hal etildi. Xususan, auktsion orqali yer uchastkalari sotib olinganda qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash amaliyoti bekor qilindi. Bu qaror biznes uchun qo‘shimcha xarajatlarni kamaytirishga xizmat qildi. Shuningdek, qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish muddatlari qisqartirilishi tadbirkorlarning aylanma mablag‘larini tezroq tiklash imkonini berdi. Natijada ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarda moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratildi.

Hududiy rivojlanish va biznes imkoniyatlar

Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotlari iqtisodiy islohotlarning muhim maydoniga aylanib bormoqda. 2024-yil 20-avgust kuni Nukus shahrida o‘tkazilgan ochiq muloqot ana shu jarayonning mantiqiy davomi bo‘ldi.

Bu galgi muloqotning o‘ziga xos jihati shuki, unda biznes rivojlanishining butun zanjiri qamrab olindi. Soliq yukini yengillashtirish, eksportni rag‘batlantirish, moliyaviy resurslarga yetish imkoniyatlarini kengaytirish, mikrobiznes subyektlarining keyingi bosqichga o‘sishi uchun sharoit yaratish kabi masalalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqildi. Natijada tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan 50 dan ortiq yangi imtiyoz va qulaylikni nazarda tutuvchi hujjatlar qabul qilindi.

Ayniqsa, eksport faoliyati bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlar uchun joriy etilgan yengilliklar muhim ahamiyat kasb etdi. Jahon bozorida raqobat kuchayib borayotgan bugungi sharoitda eksport qiluvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash mamlakat iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega. Shu bois, valyuta tushumlarini o‘z vaqtida qaytarmaganlik uchun qo‘llaniladigan jarimalar bo‘yicha muddatli moratoriy joriy qilinishi eksportyorlarga qo‘shimcha yengillik yaratdi. Bu tashqi bozorlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashga xizmat qildi.

Muloqotda ko‘tarilgan yana bir muhim masala hududlardagi iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish

bilan bog‘liq bo‘ldi. Mamlakat taraqqiyoti barcha hududlarning bir baromda rivojlanishi orqali ta‘minlanadi.

Shu maqsadda sanoat va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun qo‘shimcha mablag‘ ajratish, Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi orqali subsidiya va imtiyozli kreditlar yo‘naltirish choralari belgilandi. Ushbu hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, ish o‘rinlari yaratish va mahalliy iqtisodiy salohiyatni oshirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, Nukus shahrida bo‘lib o‘tgan ochiq muloqot tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash siyosatining navbatdagi muhim bosqichini boshlab berdi. Unda qabul qilingan qarorlar va ilgari surilgan tashabbuslar biznes yuritish sharoitlarini yanada yaxshilash, tadbirkorlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, eksport faoliyatini rag‘batlantirish va hududlarning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Barqaror iqtisodiy poydevor

Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotlari so‘nggi besh yil davomida mamlakat iqtisodiy siyosatining muhim institutsional mexanizmiga aylandi. Bu muloqotlar orqali tadbirkorlarning muammolari o‘rganildi, yangi qo‘llab-quvvatlash tizimlari yaratildi, moliyaviy va huquqiy mexanizmlar takomillashtirildi. 2025-yil 20-avgust kuni bo‘lib o‘tgan beshinchi ochiq muloqot esa mazkur jarayonni yangi bosqichga olib chiqdi. Unda asosiy e‘tibor xususiy sektorning uzoq muddatli va barqaror rivojlanishi uchun mustahkam iqtisodiy poydevor yaratishga qaratildi.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning o‘rni tobora ortib bormoqda. Yangi ish o‘rinlarining asosiy qismi, eksport hajmining sezilarli ulushi va iqtisodiy faollikning muhim manbalari aynan tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Shu bois, davlat tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar nafaqat mavjud biznesni saqlab qolish, balki uning kelgusi rivojlanishi uchun ham qulay muhit yaratishi lozim. 2025-yilgi ochiq muloqotda ilgari surilgan tashabbuslar aynan shu maqsadga xizmat qildi.

Muloqotning eng muhim natijalaridan biri tadbirkorlik va infratuzilmaviy sharoitlarni rivojlantirish uchun 2026-2027-yillarda jami 270 trillion so‘m yo‘naltirilishi belgilanganida namoyon bo‘ldi. Bu raqamning o‘zi iqtisodiyotda xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlashga qanday katta ahamiyat berilayotganini ko‘rsatadi. Muhimi, mazkur mablag‘lar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish, hududlarda ishblarmonlik muhitini yaxshilash va investitsiyaviy faollikni rag‘batlantirishga xizmat qiladigan resurs sifatida qaralmoqda.

Eksport faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash ham 2025-yilgi muloqotning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Keyingi yillarda jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan o‘zgarishlar, tashqi bozorlardagi beqarorlik va logistika zanjirlaridagi murakkabliklar eksport qiluvchi korxonalar faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu sharoitda tashqi bozorlardagi vaziyat sababli yuzaga kelgan muddatli o‘tgan debitor qarzdorliklar uchun jarimalar qo‘llashga moratoriy joriy etilishi eksportyorlarga qo‘shimcha yengillik va ishonch berdi. Ayni qaror tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlarning risklarini kamaytirish va eksport salohiyatini saqlab qolishga xizmat qildi.

Muloqotda tadbirkorlik faoliyatidagi amaliy masalalarga alohida e‘tibor qaratildi. Jumladan, umumiy ovqatlanish sohasi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportida qo‘llanib kelayotgan elektron kirim hujjatlarini rasmiylashtirish tartibining barcha tadbirkorlik subyektlariga tatbiq etilishi hisob-kitob jarayonlarini yanada soddalashtirishga xizmat qiladi. Bu raqamlashtirish jarayonlarini kengaytirish, inson omilini qisqartirish va tadbirkorlik faoliyatining shaffofligini ta‘minlash yo‘lidagi navbatdagi muhim qadam bo‘ldi.

Beshinchi ochiq muloqot avvalgi yillarda boshlangan islohotlarning mantiqiy davomi edi. Agar dastlabki bosqichlarda tadbirkorlarni eshitish va muammolarini hal etish asosiy vazifa bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda davlat va biznes munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.



Dildagi gaplar



Azat MASHARIPOV,
“Usta Bozorboy”
korxonasi ta‘sischisi,
“Faol tadbirkor”
ko‘krak nishoni sohibi

“Usta Bozorboy”
korxonasini tashkil
etganimizga ham o‘n to‘rt
yil bo‘ldi. Xizmat ko‘rsatish
va qurilish sohasida faoliyat
yuritimiz. O‘tgan yili 1,3
miliard so‘mlik investitsiya
kiritdik. Qulay ishblarmonlik
muhiti tufayli faoliyatimiz
o‘tgan yillar mobaynida
muttasil kengayib
bormoqda.



MUNOSIBLIK MAS’ULIYAT HAMDIR

Albatta, bularning barchasiga, eng avvalo, Prezidentimizning biz, tadbirkorlarga bildirgan yuksak ishonchi va bergan imtiyozlari tufayli erishyapmiz. O‘z navbatida, e‘tiborga yarasha munosiblik zimmanimizga katta mas’uliyat ham yuklaydi.

Ko‘p yillik ish tajribam va bilimim bilan o‘ndan ortiq shogirdlar tayyorladim. Ular bugun turli sohalarda faoliyat yuritib, yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shmoqda.

Ayni paytda “Ozod intensiv bog‘” fermer xo‘jaligi, “Shobboz Sluster” va “Beruniy agrobiznes tomorga xizmati” kabi tarmoq korxonalarimizda 100 ta doimiy va 200 ta mavsumiy ish o‘rni mavjud. Asosan, chorvachilik, bog‘dorchilik, issiqxonachilik, bug‘doy klasteri, uy-joy qurilishi sohaslarida faoliyat yuritamiz. Chet eldan keltirilgan 300 bosh qoramolni parvarishlab, go‘sht va sut mahsulotlarini yetishtirmoqdamiz.

Milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, yurtimizda ishblarmonlik muhitini yanada yaxshilash, yangi O‘zbekistonda tadbirkorlik



sohasida ilg‘or tajriba va an‘analarni maktabini yaratish borasida alohida ibrat va namuna ko‘rsatib kelayotganimiz, sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, aholi bandligi va farovonligini ta‘minlashga munosib hissa qo‘shayotganimiz inobatga olinib, “Faol tadbirkor”

ko‘krak nishoni bilan taqdirlanganimdan juda xursand bo‘ldim.

Ko‘ksimni bezab turgan “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni zimmanimizga yuklatilgan vazifalarga sidiqdildan yondashish va samarali mehnat qilishga kuch beradi.



Mizrob BO'RONOV,
qishloq xo'jaligi
vazirining maslahatchisi

**Halol luqma haqida
aqlimizni taniganimizdan
buyon ko'p hikmatu
rivoyatlar eshitganmiz!
Xo'sh, halol luqma nima?
Ota-bobolarimiz bu
tushunchaga nega bu qadar
chuchur e'tibor qaratib,
unga amal qilib yashab
kelgan. Nega halol luqma
yeyish dunyo yargalardan
buyon ellar, elatlar tilidan
va dilidan tushmaydi. Bu
tushunchaning qanday sir-
sinoati, kuch-u qudrati bor?**

Bir mambada halol luqma — inson halol mehnat bilan topib, pok yo'l bilan iste'mol qilgan rizqi bo'lib, ibodatlarning qabul bo'lishi, qalb pokligi va duolar ijobatining asosidir, deya ta'rif berilgan. “O'xshamoq istsang Luqmonga, E'tibor bermoq kerak luqmangga”, deydi Jaloliddin Rumi.

Yana bir mashoyix, pirlarning piri, Bahouddin Naqshbanddek ulug' siymolarning ustoz, islom olamida o'z sulukiga ega bo'lgan Sayyid Amir Kulob “Bilingki, qalbning, tilning va badanning pok bo'lishi halol luqmaga bog'liq. Halol luqma yegan insonning me'dasi pok suv to'plangan hovuz kabidir. Undan atrofga toza suv tarqaladi, u bilan chiroyli gullar ochildi, daraxtlar meva beradi...” deydi.

Mashhur yozuvchi Ne'mat Aminovning “Bir asr hikmati” asari bosh qahramoni, yozuvchining padari buzrukori Tesha bobo Aminov bir rivoyatni aytib bergan edi. Qadim zamonlarda Buxoroda yetti iqlimga mashhur bir ulug' olim, alloma bo'lgan ekan. Uning ikki o'g'li bo'lib, to'ng'ichi juda aql-farosati, dinu iymonli yigit, kichigi esa aql-farosati sust, iymonli qilishga layoqatsiz bo'lib qoladi, birovlarga ozor berishdan hayiqmaydigan ekan.

Bir kuni ulug' alloma shogirdlariga Handasadan dars berib, yakundiga yuzlanibdi. “Kimda qanday savol bor” deb so'rasa, bir shogirdi “Menda savol bor” debdi. “So'ylang” debdi alloma. “Ustoz, savolim beodobligidan men aqli noqisni manzur tutgaysiz”. “So'ylayvering”. “Sizing ikki farzand-u azizingiz bor. To'ng'ichingiz juda baodob, bama'ni, ilm-u ifronga ixlosmand. Kichingiz, negadir, akasiga o'xshamaydi. O'tgan yakshanba o'zim ko'rdim, guzarda bezorilik qilib, bir bechora bandani chunonam do'pposladiki, asti qo'yavering. Siz bir ulug' hazrat bo'lsangiz, sizdan bunday farzand?.. Aqlim qosirlik qiladi, ustoz!”.

Ulug' olim yerga qaragancha bir oz jim qolib, bir xo'rsinib, keyin shogirdiga yuzlanibdi. — Ochig'ini aytсам, kenja o'g'lig' tug'ilmasdan oldin bir uyatli ishni qilganman. Bir yakshanba kuni uyga bezorilik qilay deb boshga tushuvdim. Pishig'chilik payti edi. Ko'zim rastadagi juda ajoyib bir uzum boshiga tushdi. U tirsilagan, toza, tillarang tovlanib turardi. Buni qarangki, uzum boshiga xayol-bexayol qarab turib, nafsinni tiya olmay, egasidan so'roqsiz ikki donasini uzib olib og'zimga solibman. Chaynaganimda suvi tomog'imga ketdi. Va xato qilganimni bilib, chaynashdan to'xtab, uzumning egasiga qarab, qotib qoldim. U mening beixtiyor shunday qilganimni tushundi.

— Yo'q-yo'q, uyalmang hazrat, hechqisi yo'q, — dedi u shosha-pisha qo'lini ko'ksiga

Donishmandlar “Sog'lom tanda — sog'lom aql” deb bejiz aytishmaydi. Tananing sog'lomligi sog'lom, halol ne'matlardan iste'mol qilish, sog'lom ma'naviy olam injularidan oziqlanishdir.



YANGI O'ZBEKISTON



Halol luqma

**millat genofondini yaxshilaydi,
yorqin kelajakka poydevor yaratadi**



qo'yib. — Men ming bora roziman! Sizday ulug' inson men yetishtirgan mevani yeyishni o'ziga ravo ko'rganidan benihoya mamnunman! Ammo bu rozilik aytilishiga kech bo'lgan edi. Uzumning shirasi allaqachonlar tomog'imdan o'tib, jig'ildonimga joylashgandi. Uning shunday xudobexabar bo'lishiga men aybdorman.

Aslida, uzumning bir qultum suvi bir farzand taqdiriga bunchalar ta'sir qilmaydi. Ammo egasining rozilgisiz ikki dona uzum donasini og'zimga solishga undagan ichimdagi harom nafs o'zining mavjudligini namoyon qilgan edi...

Inson ruhi tanadan va ichki muhitdagi mavjud ma'naviy olam nuridan oziqlanadi. Tana sog'lom bo'lsa, ruh ham sog'lom, tiniq va teitkidir. Tanasi kasalmandning ruhi siniq va pajmorda bo'ladi. Bular isbot talab qilmaydigan haqiqat.

Donishmandlar “Sog'lom tanda — sog'lom aql” deb bejiz aytishmaydi. Tananing sog'lomligi sog'lom, halol ne'matlardan iste'mol qilish, sog'lom ma'naviy olam injularidan oziqlanishdir.

Sog'lom ne'matlar degani nima? Ular turli kasalliklarga chalilmagan, inson tanasiga zarar keltiruvchi mineral o'g'itlardan belgilangan me'yorlardan ortiq iste'mol qilmagan, aksincha, ilm-fan xulosalari doirasida oziqlantirilgan meva-sabzavotlar, poliz va boshqa ozuqa mahsulotlaridir.

Halol ne'matlar nima? Ular inson iste'mol qilishi mumkin bo'lgan, tanaga va ruhga sog'lom, kerakli ozuqa moddalarini beruvchi, genlarni insoniy o'lchamlar va chegaralardan chiqarib yubormaydigan, ruhga kuch-quvvat bag'ishlovchi ne'matlardir.

Harom mahsulotlarchi? Ular inson yeyishi man qilingan, tana a'zolariga zarar keltiruvchi, ko'proq mahsulot olish, foyda ortidan quvish hirsli bilan mineral o'g'itlardan me'yoridan ortiq iste'mol qildirilgan, turli kasalliklarga chaligan yoki aynigan meva-sabzavot, poliz va boshqa mahsulotlar. Ular inson tanasining ichki



Buning ikki yo'li bor. Biri bugun biz aytmoqchi bo'lgan va davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshlangan ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tezkor joriy qilish orqali xalqimiz uchun sog'lom, halol luqmani yaratish va millat genofondini yanada yaxshilash borasidagi tarixiy sa'y-harakatlar.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi tarmog'ida insoniylik, axloq, ijodkorlik, tafakkur tamoyili asosida mehnatni tashkil qilish borasida keng ko'lamdagi targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu tamoyilni korxonalar ishchilari, oliy o'quv yurti talabalari, olim va mutaxassislarga, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish va uni ichki hamda tashqi bozorlarga chiqarish bilan shug'ullanayotgan har bir fuqaroga yetkazish chora-tadbirlari ko'riyapti. Chunki halol luqma yeganlarga kelajakni yaratadilar.

o'g'itlar, turli kimyoviy dorilarni berish orqali imkon qadar ko'proq mahsulot yetishtirishga intiladi. O'zi yetishtirayotgan mahsulot yuzlab odamlarning salomatligiga zarar yetkazishi mumkinligini o'ylab ham ko'rmaydi.

Kechagidan ko'proq va sifatli, foydali mahsulot yetishtirish uchun ijodkorlik kerak bo'ladi. Hozirgi paytda “kreativlik” degan qandaydir ajnabiy so'z modaga aylandi. Aslida, u ijodkorlik, ya'ni har bir narsaga ijodiy yondashish ma'nosini bildiradi. Ijodkorlik bo'lmasa, har doimgidek, bir maromda yerga ketmonni urgan bilan zamonaviy dehqonchilik, chorvachilik, asalarichilik va boshqa yumushlarni tashkil qilib bo'lmaydi.

Keyingisi — tasavvur. U bo'lmagan joyda ko'r-ko'rona mashagqatli mehnat-u daromadi xarajatni qoplamaydigan, sifatsiz mahsulotlarni yetishtirilish, bozorlarga chiqarilaveradi. Ilmning kuchini ishlatib, mo'l-ko'l hosil olish mumkinligi haqidagi ilmlar tasavvursiz shaxslarning tasavvuriga sig'maydi. Chunki u shunday bo'lishi mumkinligini tasavvur qila olmaydi.

Masalan, bundan 10-15 yil oldin paxtachilikda 40-45 sentnerlik marraga erishish katta yutuq edi. Bugun ilm-fan yutuqlari, zamonaviy yangi agrotexnologiyalar ko'ullanilishi natijasida bu ko'rsatkich o'rtamiyona va hatto past ko'rsatkichga aylanib qolmoqda. Zamonaviy agrotexnologiyalarni ko'llagan holda bir gektar yerdan 80-100 sentner hosil olish mumkin ekan. Xuddi shunday, oldinlari g'alladan 60-65 sentner hosil olish ko'z ilg'amas natija edi. Bugun ma'lum bo'lyaptiki, g'allachilikka ijodiy yondashilasa, gektaridan 100-110 sentner va undan ortiq don olish imkoniyatlari bor ekan.

Avvalgi agrotexnik talablar bo'yicha paxtachilikda bir gektar yerdan 80-90 ming ko'chat bo'lishi kerak edi. G'o'za qalin bo'lsa, u shoxtlamaydi va bo'yi o'sib ketib, kam ko'sak tugadi, deyilardi. Bugun esa uning aksi — bir gektar yerda 240 ming tugpacha g'o'za qoldirish agrotexnologiyasi joriy qilinmoqda. Chig'it 76x10 sxemasida plyonka ostida o'shqator ekilyapti. Natija esa hayratlanarli — hosildorlik gektariga 80-100 sentnerga ko'tarilib ketyapti. O'g'itlar va suvga, texnika va ta'qilib moylashtirilgan materiallarga qilinayotgan sarf-xarajalar sezilarli qisqartirilmoqda. Yangi, qarishga signal berish texnologiyasi orqali paxtaning pishib yetilish muddatlarini qisqartirishga erishilmoqda. G'o'za g'ovlab, pishmay qoladigan ko'saklar ko'payishining, ya'ni qilingan xarajat besamar ketishining oldi olinib, berilgan o'g'it va suv, ishlovdan shakllantirilgan ozuqa g'o'za tanasida qoldirilmay, hosilga yo'naltirilmoqda. Avvallari

berilgan ozuqa g'o'zaning tanasida va sovuq tushib, pishmay qoladigan ko'sakchalarga sarflanardi. Demak, o'tinga va asosan chirindiga aylanadigan “mahsulot”ga katta miqdorda mineral o'g'itlar sarflanardi. Bugun esa zamonaviy agrotexnologiyalarni ko'llash orqali g'o'zaga berilgan ozuqaning aksariyat qismidan samara olinmoqda.

Shuningdek, g'o'za, g'alla va boshqa meva-sabzavotlar yetishtirishda yangi tipdagi mineral o'g'itlar va bir qator kimyoviy preparatlar ko'ullanilib, olinadigan hosilning sifati va salmog'i karraga ortmoqda.

G'allachilikda bir gektar yerga 200-250 kilogrammdan ortiq urug'lik spemaslik kerakligi to'g'risida agrotexnik talab ko'yilar edi. G'alla siyrakroq ekilsa, nihol shonalaydi, bir urug'dan bir nechta qo'shimcha tup chiqadi deyilardi. O'z-o'zidan ma'lumki, shonalarda tugulgan boshqoq asosiy tanadagidan ko'ra kech pishadi va bir oz maydardir bo'ladi. Shonadagi boshqoqning pishishi kutilgan taqdirda asosiy tanadagi boshqoq g'arq pishib, shamolda yoki qushlar hujumida to'kilib ketadi. Agar asosiy tanadagi boshqoqni nobud qilmaslik uchun bug'doy ertaroq o'rib olinsa, shonalardagi boshqoqlar oxirigacha pishmay, xom o'rib olinadi. Keyin bitta ildiz bir nechta boshqoqni yetarlicha ozuqa bilan ta'minlashi mumkin emas. Shuning uchun oldinlari bug'doy donalari ozuqaga to'yinmagan, mayda-mayda bo'lar edi.

Tasavvurning torligi esa, faqat insonga zarar keltiruvchi yo'llar bilangina mo'l hosil yetishtirish mumkin deb o'ylashga olib keladi. Aslida, tasavvur bir oz kengaytirilsa, zamonaviy agrotexnologiyalarni izchil ko'llash yo'li bilan insonga zarar yetkazmaydigan, foydali moddalarga boy mahsulot, ya'ni halol ne'matlarni yetishtirish mumkinligiga amin bo'ladi kishi.

Bugungi kunda ko'ullanilgan agrotexnologiyalar tufayli erishilgan katta natijalar avvalgi agrotexnik talablar hozirgi zamon talablariga mutloq javob bermasligini yaqqol isbotladi. Yaqin o'tmishda 20-25 million aholini arang oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab kelgan agrotexnikalar, yer va suv resurslariga bo'lgan munosabat bilan bugungi 40 millionga yaqinlashgan aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish mumkin emas. Shu bois, bugungi dunyoda agrar sohada erishilgan yutuqlarni chuqur o'zlashtirish bilan birga ota-bobolarimizdan qolgan tarixiy tajribalarni, oziq-ovqat yetishtirish madaniyatini qayta o'rganib, ularni ishlab chiqarish jarayonlariga izchillik bilan joriy qilish kerak bo'ladi.

Manbalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, asli madaniyat so'zi qishloq xo'jaligi bilan inson hayotiga kirib kelgan. Ya'ni qadimda madaniyat insonning yurish-turishi, ozodaligi, jamiyatda o'zini tutishi, ichki va tashqi dunyosi bilan emas, aynan insonning qo'lga toshdan yasalgan ish qurollari bilan yerga ishlov berish jarayonida shakllangan. U lotincha “cultura” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, yerni qayta ishlash va yaxshilashni anglatadi.

Demak, inson oziq-ovqat yaratish uchun yerga ishlov berish, uni ekishga tayyorlash, urug'lik qadash va uni hosil berguniga qadar parvarishlashda madaniyatli bo'lishi lozim.

O'tmishda bugungi O'zbekiston hududida yashagan ota-bobolarimizning dehqonchilik, bog'dorchilik, sabzavot-polizchilik, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik va boshqa yo'nalishlarda madaniyatga yo'g'rilgan boy tajribalari bo'lgan. Amir Temur tuzgan yirik imperiyada to'kin-sochinlik, ma'murchilik o'z-o'zidan bo'lmagan. Uning poydevorini, albatta, yuksak darajada madaniylashgan qishloq xo'jaligi tashkil qilgan. Fikrimizning dalili sifatida Amir Temurning Samarqand atrofidagi dunyoga mashhur bog'larini, dalalarda tajribali dehqonlar tomonidan yetishtirilgan va jahon hamjamiyatini hayratga solgan sarxil mevalar, qovun-tarvuzlar dong'ini eslashning o'zi kifoya.

Joriy yilda davlatimiz rahbarining topshirig'iga asosan bunday toza va mazali, sifatli mo'l-ko'l mahsulotlar yetishtirishning sir-sinoatini bilish uchun qishloq xo'jaligi vazirligi mutaxassislari tomonidan izlanishlar olib borildi. Natijada O'z FA Sharqshunoslik instituti bilan hamkorlikda ana shunday noyob adabiyotlardan biri — “Fanni kishtu ziroat” kitobi olimlarning izohlari ila “Amir Temur va temuriylar davrida qishloq xo'jaligi” nomi bilan nashr qilindi. Ushbu kitobda bayon etilgan mo'l va sifatli dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish borasidagi agrotexnik tadbirlar jamiyasi ota-bobolarimizning bu borada juda boy tajribalari mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Albatta, bu tajribalar ming yillar davomida misqollab shakllangan.

Tarixdan ma'lumki, ota-bobolarimiz dehqonchilikda tozalik, ozodalik asosiy o'rinni egallagan. Oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiriladigan joylar toza, ozoda bo'lgan. Dalalarda toza tuproq, toza suv, toza havo... Nafaqat dalalarda, balki o'zida tayyorlanadigan har bir joy toza, hozirgi iboralar bilan aytganda, sanitariya talablariga javob beradigan holatda bo'lishi talab etilgan.

Shu bois, bugungi kunda qishloq xo'jaligi vazirligi dalada, fermada yurtdoshlarimiz uchun mahsulot yetishtirilayotgan har bir dehqon, fermer oddiy bir daromad keltiruvchi mehnat bilan emas, balki jamiyatimiz mustahkamligi, xalqimiz genofondini yangilash, kelajak avlodlarning toza, halol ne'matlar bilan oziqlanishini tashkil qilishga qaratilgan jiddiy faoliyat turi bilan shug'ullanayotganligini his qilishi yo'lida chora-tadbirlarni ko'riyapti.

Birgina misol. Keyingi yillarda respublikamizning barcha hududlarida katta-kichik yo'llardan mashinalarda qatnayotgan ayrim madaniyatsiz yo'lovchilar dala chetlariga sonasqoz plastik idishlarni tashlab ketmoqda. Bir qaraganda, plastik idishlar suv, turli ichimliklar uchun ishlatiladi, ular zararsizdek tuyuladi. Ammo ular quyosh ostida qolib ketgach, mikroplastik va nanoplastik zararchalarga aylanib, tuproqqa singadi, yon-atrofga havo orqali tarqala boshlaydi. Inson shu havodan nafas oladi, tuproqqa singgan mikroplastiklar dalada yetishtirilayotgan sabzavot, poliz va boshqa turdagi mahsulotlar, qoramollar, qo'y-q'zilar tanasiga kiradi. Olimlarning aniqlashicha, mikroplastik va nanoplastik zararchalar shamol ta'sirida 100 kilometrgacha uchib boradi. O'z-o'zidan ravshanki, ular oqibatda meva-sabzavot, go'sht, sut, baliq singari mahsulotlar orqali inson tanasiga o'tadi.

Shuni e'tiborga olgan holda, vazirlik tomonidan respublika hududidagi barcha dalalarni plastiklardan tozalashga qaratilgan “Toza dala” umumsoha harakati amalga oshirilmoqda. Bu harakatga fermerlar, soha boshqaruvida faoliyat ko'rsatayotgan volonterlar xodimlar to'liq jalb qilingan.

Ota-bobalarimiz xalqni toza taom, sog'lom ozuqa bilan ovqatlanishga da'vat qilgan. Shuning uchun bizlar ham ulug' bobolarning avlodlari sifatida ekologik toza mahsulotlar yetishtirishni o'z oldimizga bosh maqsad qilib qo'yishimiz kerak. Shunda ota-bobolarimizdan qolgan halol luqma yeyish kerakligi borasidagi ulug' ta'limga amal qilgan bo'lamiz.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
**O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-846.

29305 nusxada bosildi.
Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi A2.**
Bakosi kelishilgan narxda.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi A2.**
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E'lonlar bo'limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60